



## Jizzax viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2025 yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Jizzax tumanı qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi 3 730,5 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3 538,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 93,3 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 99,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

### Jizzax viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



### II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Baxmal (640,9 mlrd so'm), G'allaorol (531,4 mlrd so'm), Zomin (491,5 mlrd so'm), Sh.Rashidov (399,3 mlrd so'm), Forish (337,2 mlrd so'm) va Do'stlik (299,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (95,2 mlrd so'm), Yangiobod (96,7 mlrd so'm) va Mirzacho'l tumanlarini (120,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3 730,5</b>	<b>103,5</b>
Jizzax shahri	95,2	102,0
Arnasoy tumani	146,5	102,8
Baxmal tumani	640,9	101,6
G'allaorol tumani	531,4	101,2
Sh.Rashidov tumani	399,3	102,4
Do'stlik tumani	299,6	100,9
Zomin tumani	491,5	107,2
Zarbdor tumani	156,3	104,0
Mirzacho'l tumani	120,0	101,7
Zafarobod tumani	240,0	116,2
Paxtakor tumani	175,9	106,4
Forish tumani	337,2	101,5
Yangiobod tumani	96,7	100,5

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Sh.Rashidov (116,2 %), Zafarobod (107,2 %), Zomin (106,4 %), Do'stlik (104,0 %) va Yangiobod (102,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Baxmal (100,5 %), Paxtakor (100,9 %), Arnasoy (101,2 %), G'allaorol (101,5 %) va Mirzacho'l (101,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025 yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 486,3 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 102,4 mlrd so'mni (103,9 %), chorvachilik mahsulotlari 3 383,9 mlrd so'mni (103,4 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Mirzacho'l (624,9 mlrd so'm), Arnasoy (510,7 mlrd so'm), Zafarobod (464,8 mlrd so'm) va Zarbdor (378,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (94,2 mlrd so'm), Baxmal (96,2 mlrd so'm) va Forish tumanlarini (116,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sh.Rashidov (119,2 %), Zafarobod (106,5 %), Zomin (106,4 %) va Do'stlik (104,7 %) tumanlarida qayd etildi. Baxmal (100,5 %), Paxtakor (100,9 %) va Mirzacho'l (101,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 91,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,2 % i fermer xo'jaliklariga, 3,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Baxmal (619,6 mlrd so'm), G'allaorol (495,2 mlrd so'm), Zomin (458,8 mlrd so'm), Sh.Rashidov (364,3 mlrd so'm) va Do'stlik (279,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (89,2 mlrd so'm), Yangiobod (94,9 mlrd so'm) va Mirzacho'l tumanlarini (106,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Baxmal (120,1 %), G'allaorol (106,6 %), Zomin (106,5 %), Sh.Rashidov (105,5 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiobod (100,5 %), Mirzacho'l (100,7 %), Arnasoy (101,4 %) va Zarbdor (101,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 39,2 ming tonna go'sht, 128,6 ming tonna sut, 63,5 mln dona tuxum, 713 dona qorako'l teri yetishtirildi va 3,4 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, sog'ib olingan sut – 102,5 % ni, olingan tuxum – 101,1 % ni, olingan qorako'l teri – 102,0 % ni hamda ovlangan baliqlar – 100,4 % ni tashkil qildi.

2025 yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 2,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 3,1 % i fermer xo'jaliklari, 96,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025 yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i  
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025 y.	O'sish sur'ati % da
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>39,2</b>	<b>103,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,1	106,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	36,2	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,9	254,8
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>128,6</b>	<b>102,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,0	117,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	123,8	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	118,6
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>63,5</b>	<b>101,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,5	100,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	29,3	90,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	29,7	115,3
<b>Qorako'l teri, dona</b>	<b>713</b>	<b>102,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	570	115,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0	0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	143	70,1
<b>Baliq, ming tonna</b>	<b>3,4</b>	<b>100,4</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,3	82,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,4	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,7	102,5

Shu bilan birga, olingan tuxumning 7,0 % i fermer xo'jaliklariga, 46,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 46,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 79,9 % i fermer xo'jaliklariga, 20,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 7,5 % i fermer xo'jaliklariga, 12,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 79,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



## Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<b>Go'sht</b> (tirik vaznda), tonna	<b>Sut,</b> tonna	<b>Tuxum,</b> ming dona
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>39 186,0</b>	<b>128 631,0</b>	<b>63 486,0</b>
Jizzax shahri	1 212,3	1 874,7	919,8
Arnasoy tumani	1 560,2	5 049,1	2 121,5
Baxmal tumani	7 371,3	22 396,7	36 343,4
G'allaorol tumani	5 379,8	18 579,6	3 621,5
Sh.Rashidov tumani	4 370,1	12 599,0	956,3
Do'stlik tumani	3 279,5	10 493,1	11 212,0
Zomin tumani	5 302,9	18 021,5	1 544,6
Zarbdor tumani	1 553,5	6 338,4	721,9
Mirzacho'l tumani	1 062,2	5 575,6	988,1
Zafarobod tumani	2 054,8	6 294,3	1 271,8
Paxtakor tumani	1 656,8	7 620,2	1 378,0
Forish tumani	3 668,2	6 933,3	876,5
Yangiobod tumani	714,4	6 855,5	919,8

### Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi G'allaorol (15,5 mlrd so'm), Sh.Rashidov (14,1 mlrd so'm), Zarbdor (10,7 mlrd so'm), Paxtakor (10,6 mlrd so'm) va Mirzacho'l (9,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiobod (1,4 mlrd so'm), Forish (1,5 mlrd so'm) va Zafarobod tumanlarini (4,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol (109,7 %), Sh.Rashidov (108,1 %), Zarbdor (105,7 %), Paxtakor (104,5 %) va Mirzacho'l (104,3 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiobod (94,6 %), Jizzax shahri (97,5 %), Forish (102,1 %) va Zafarobod (102,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



## Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 013,0</b>	<b>103,2</b>
Jizzax shahri	253,2	97,1
Arnasoy tumani	62,2	169,9
Baxmal tumani	0,0	0,0
G'allaorol tumani	61,3	105,1
Sh.Rashidov tumani	409,1	112,4
Do'stlik tumani	30,2	108,6
Zomin tumani	38,5	102,1
Zarbdor tumani	24,5	32,8
Mirzacho'l tumani	23,1	100,4
Zafarobod tumani	15,2	102,7
Paxtakor tumani	71,3	118,6
Forish tumani	0,0	0,0
Yangiobod tumani	24,4	100,0

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sh.Rashidov tumani (40,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Paxtakor (7,0 %), Arnasoy (6,1 %), G'allaorol (6,1 %), Zomin (3,8 %) va Do'stlik (3,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Zafarobod (1,5 %), Mirzacho'l (2,3 %) va Yangiobod tumanlarida (2,4 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy (169,9 %), Paxtakor (118,6 %), Sh.Rashidov (112,4 %), Do'stlik (108,6 %), G'allaorol (105,1 %) tumanlarida qayd etildi.

## IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025 yilning 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 957,9 ming boshga yetdi, (2024 yilning 1 aprel holatiga nisbatan 2,0 % ga ko'p), sigirlar 276,3 ming boshga (1,5 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 485,9 ming boshga (3,1 % ga ko'p), parrandalar 3 747,4 ming boshga (1,0 % ga kam) yetdi.



## 2025 yilning 1 aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>957,9</b>	<b>102,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	65,2	105,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	858,0	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	34,7	103,2
<b>shundan sigirlar</b>	<b>276,3</b>	<b>101,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	21,4	102,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	244,0	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,9	106,0
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>2 485,9</b>	<b>103,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	446,0	99,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 604,7	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	435,2	116,8
<b>Otlar</b>	<b>32,5</b>	<b>102,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,9	100,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	18,6	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,0	112,1
<b>Parrandalar</b>	<b>3 747,4</b>	<b>99,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	315,1	104,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1713,6	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1718,7	95,7

2025 yilning 1 aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiyligi sonidan 7,7 % i fermer xo'jaliklariga, 88,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 17,9 % i fermer xo'jaliklariga, 64,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiyligi sonidan 8,4 % i fermer xo'jaliklariga, 45,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 45,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



## 2025 yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>957 887</b>	<b>2 485 869</b>	<b>3 747 375</b>
Jizzax shahri	12 552	49 779	231 679
Arnasoy tumani	49 504	32 865	68 985
Baxmal tumani	170 600	329 448	176 091
G'allaorol tumani	175 094	336 938	1 327 065
Sh.Rashidov tumani	88 473	184 570	506 480
Do'stlik tumani	39 051	45 635	57 790
Zomin tumani	115 868	197 205	331 470
Zarbdor tumani	55 345	72 562	195 764
Mirzacho'l tumani	40 638	69 437	181 183
Zafarobod tumani	42 279	115 553	363 179
Paxtakor tumani	54 283	51 504	118 652
Forish tumani	68 837	889 442	138 732
Yangiobod tumani	45 363	110 931	50 305

### V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraaga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirdorlik sub'ektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iغا berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.



**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishslash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlardagi asosiy turdag'i chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdag'i qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznni o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdag'i parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

**Metama'lumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
S.Ismoilov  
72 221-54-00 (2610)

---